

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsnинг milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar.....	207
U.Qurbanov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'rroqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirdorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsi anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzmamatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
"Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253

SIYOSAT

M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globallashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museybizada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285

ТАРИХ

I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarda suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

MUSTAQILLIK YILLARIDA SUV MUAMMOLARINI BARTARAF ETISHDA DAVLAT SIYOSATI

ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА ПО ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ ВОДНЫХ ПРОБЛЕМ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

THE STATE POLICY ON PREVENTING WATER PROBLEMS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Usmanov Bekzod Xasanbekovich¹

¹Usmanov Bekzod Xasanbekovich

– Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
“Gumanitar fanlar” kafedrasi o’qituvchisi.

Аннотация

Mustaqillik yillarida suv muammolarining oldini olishga qaratilgan davlat siyosati.

Ushbu maqolada respublikaning asosiy muammolaridan biri – suv muammosi yoritilgan va bu borada Ittifoq mavjud bo’lgan davda bu boradagi qator kamchiliklar aniqlangan.

Shuningdek, maqolada O’zbekiston Respublikasi hukumatining suv muammolarini bartaraf etish yo’lidagi asosiy harakatlari yoritilgan. Shu bilan birga, suv xo’jaligi sohasidagi mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan asosiy qonun hujjatlari va ularning ijrosi ko’rsatilgan.

Аннотация

Политика государства по предотвращению водных проблем в годы независимости.

В данной статье освещается одна из главных проблем республики – водная проблема, и в связи с этим раскрывается ряд недостатков в данной области, допущенные в период существования Союзного государства.

Также в статье освещаются основные действия правительства Республики Узбекистан на пути преодоления водных проблем. В тоже время показаны основные законодательные акты и их исполнение, направленные на решение имеющих проблем в области водных ресурсов.

Abstract

The State Policy of Preventing Water Problems during the Years of Independence.

In this article is given water problem, one of the main problems of the Republic of Uzbekistan and in connection with it all the defects done in this sphere during the existence of Soviet State are opened in it.

In this article are also given the principal actions of the government of the Republic of Uzbekistan to overcome water problems. At the same are shown the legislative statements and their fulfillment to solve the problems of water resources.

Kalit so’zlar: suv muammolari, davlat siyosati, mustaqillik, O’zbekiston Respublikasi, Sovet davlati, suv resurslari, hukumat harakatlari, qonunchilik bayonotlari, suvni boshqarish, suv tanqisligi, suvni tejash, suv infratuzilmasi, suvni boshqarish, suv qonunchiligi, suvni taqsimlash, sug’orish tizimlari, suv xavfsizligi, barqaror suv boshqaruvi, suv samaradorligi, suv siyosati islohotlari

Ключевые слова: Проблемы с водой, государственная политика, независимость, Республика Узбекистан, Советское государство, водные ресурсы, действия правительства, законодательные заявления, управление водными ресурсами, нехватка воды, экономия воды, водная инфраструктура, управление водными ресурсами, водное законодательство, распределение воды, системы орошения, водная безопасность, устойчивое управление водными ресурсами, эффективность использования воды, реформы водной политики

Key words: Water problems, state policy, independence, Republic of Uzbekistan, Soviet State, water resources, government actions, legislative statements, water management, water scarcity, water conservation, water infrastructure, water governance, water legislation, water allocation, irrigation systems, water security, sustainable water management, water efficiency, water policy reforms

KIRISH

Insoniyat tarixida XIX-XX asrlar o’ziga xos rivojlanish davri bo’ldi. Dunyoda ko’plab ilm-fan va texnika yutuqlari qo’lga kiritildi. Bularning barchasi insonlarning turmush tarzini yaxshiladi, ularning umr davomiyligini uzaytirdi. Jamiyat ko’plab imkoniyatlar va qulayliklarga erishdi. Zamonaliv va yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan uylar-binolar qurildi. Shaharlar o’sdi, davlatlarning iqtisodiy qudrati oshdi. Ammo bu yutuqlar o’z navbatida, insoniyatni bir qator yirik — global muammolarga olib keldi. Ulardan biri — bu ekologik muammodir. Fan-texnika taraqqiyoti jadallahsgan sari insonlarning atrof — muhitga bo’lgan munosabatlari ham borgan sari faollashib, u

TARIX

tabiiy boyliklarni ishlab chiqarishga bugun-kechagidan, ertaga esa bugungidan ko'proq hajmda jalg qilish harakatida mehnat qilmoqda, tabiatdan boyliklarni tortib olish va ulardan insoniyat ehtiyojiga ko'proq sarf qilish kuchaygandan-kuchayib ming yillar davomida barqaror bo'lib kelgan ekologik muvozanat buzilib, inson bilan tabiat o'rtaisdagi munosabat murakkablashib, tabiiy holat falokat yoqasiga kelib qoldi va bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida «ekologik muammo», «ekologik tanglik», «ekologik xavf», «atrof-muhitning ifloslanishi» kabi terminlarni uchratish odatiy holga aylandi. Insoniyat hayoti jar yoqasiga kelib qoldi va insoniyat uchun ekologiya masalasi – bu, bugungi kunning yechimi topilishi shart bo'lgan eng asosiy masalasiga aylandi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab dunyo mamlakatlari atrof-muhit masalasi bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'tmishda ham, hozirda ham, ekologik xavf-bu ma'lum bir davlat yoki ma'lum bir mintaqo doirasidagina cheklanib qoladigan va aynan, ma'lum bir davlatlarga yoki tashkilotlarga tegishli bo'lgan muammo emas. Shuni achinish bilan ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo mintaqasida ham ekologik falokatning g'oyat xavfli zonasini vujudga kelgan. Albatta, bu falokat o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Sobiq Ittifoq davrida iqtisodiyotning ekstensiv ravishda rivojlanishi, tabiat boyliklaridan tartibsiz foydalanish, qishloq xo'jaligida haddan tashqari ko'p mineral o'g'itlar va pestitsidlarni ishlatish, sanoat ishlab chiqarishda zaharli chiqindilarning ko'payib ketishi, paxtani ko'p miqdorda yetishtirish maqsadida suvdan oqilona foydalanmaslik kabi xatolar Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik jihatdan og'ir vaziyatni vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvidan bozor munosabatlariga o'tgach, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yangi mezonlar va talablar asosida rivojiana boshladi. Respublikamizning hozirgi ekologik — iqtisodiy siyosati – umumiylar ekosistemaning muhofazasini ta'minlashga, inson hayotiy muhitining barcha qirralarini kafolatlashga qaratilgan. Bu borada mustaqillikning ilk yillarda O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti Islom Karimov ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi, bular: havo va suv muhitining zararli ta'sirini kamaytirish, yangi texnologiyalarni keng joriy etish, sanoat korxonalarida zamonaviy tozalash qurilmalarini joriy etish, mavjud foydali qazilmalardan oqilona foydalanish, jonli tabiatning genofondini saqlab qolish, shaharda va qishloqlarda aholi uchun qulay sharoit yaratish, jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish kabi muhim masalalarni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'kidlash joizki, mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy negizlari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir» deb e'tirof etilgan bo'lsa, 50-moddada «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar» deb ko'rsatilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan atrof-muhit masalasiga taalluqli bir qator qonunlar qabul qilingan. Xususan, «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida», «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida», «Yer osti boyliklari to'g'risida», «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» va «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida», «O'rmon to'g'risida», «Davlat kadastro to'g'risida», «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida» kabi qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarning qabul qilinishidan asosiy maqsad, mamlakat atrof-muhitini ijobjiy saqlash, Respublika tabiiy boyligini asrash, ekologik muhit hamda eng asosiysi, aholining salomatligini muhofaza qilishdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, dunyoning to'la huquqli suveren davlatiga aylangach, atrof-muhit masalasi bo'yicha «Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi», «Tabiat ne'matlaridan harbiy yoki turli xil dushmanlik yo'lida foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi konvensiya», «Xalqaro madaniy va tabiiy boyliklarni asrash to'g'risidagi konvensiya» kabi ko'plab xalqaro hujjalarga qo'shildi va ular Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilindi.

1992-yil 2-martda O'zbekistonning BMT ga a'zo bo'lishi xam har tomonlama ijobjiy siljishlarga imkoniyat yaratdi. O'zbekiston Respublikasi BMTning atrof-muhit masalasi bo'yicha bo'limi – UNEP va YUNESKO bilan yaqin hamkorlik olib bormoqda.

Hozirda Respublikada Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (1996.26 aprelda tuzilgan), «EKOSAN» xalqaro ekologiya va salomatlik tashkiloti (1991 yil dekabrda jamg'arma sifatida tashkil etilgandi, 2004-yil avgustda tashkilotga aylantirildi) kabi atrof-muhit va inson salomatligini yaxshilash bo'yicha bir qancha tashkilotlar faoliyat yuritib kelmoqda. Ular diyorimizda ekologik muammolarni hal etish va tabiatni asrash masalalari bo'yicha ulkan ishlar olib bordilar va bugungi kunda xam bu yo'lda o'z ishlarini davom ettirmoqdalar. Respublikadagi mavjud ekologik muammolarni tahlil etib shuni aytish mumkinki, hozirda suv tanqisligi va ifloslanishi hamda Orol muammosi O'zbekiston Respublikasining eng asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, butun dunyoda iste'mol qilishga yaraydigan toza suv miqdori juda ham oz. Yerdagi jami suv zaxirasining atigi 2 foizi chuchuk suvdir. Odamlar dunyodagi umumi suv zaxiralaringin atigi 0,4 foizidangina foydalanish imkoniyatiga ega. 1,1 milliardga yaqin odam toza ichimlik suvidan foydalana olmaydi. har kuni 2 million tonna chiqindi suv havzalariga tashlanadi. Bugungi kunda 40 dan ortiq mamlakatdagi 2 milliarddan ortiq odam suv tanqisligini sezmoqda. Markaziy Osiyo ham suv zaxiralari cheklangan hududlardan biridir. Yliga 78 kub kilometr suv keltiradigan Amudaryo va 36 kub kilometr suv keltiradigan Sirdaryo hududdagi asosiy suv manbaidir. O'zbekistonda umumi uzunligi qariyb 172,5 ming kilometr bo'lgan 74 ta kanal bor, shundan 28 ming kilometrni xo'jaliklararo kanallar, qolgan qismini xo'jalik ichki tarmoqlari tashkil qiladi. Respublikada 51 ta daryo va soy, 25 ta suv ombori, 505 ta ko'l (umumi maydoni -8785 kilometr kvadrat) mavjud. Ko'rsatilgan suv miqdori juda ham oz. Respublikada 1974-yildan boshlangan suv taqchilligi sug'oriladigan dehqonchilikni muntazam obihayot bilan ta'minlashni jiddiy qiyinlashtirmoqda. Buning ustiga suvning ifloslanishi muammoni yanada og'irlashtirmoqda. Daryo va kanal suvlaringin ifloslanishi, ayniqsa, yirik sanoat shaharlardan o'tganlarida sodir bo'ladi. Daryo suvlari sanoat, qurilish, transport, kommunal va maishiy xo'jalik korxonalarining suv havzalariga tashlanayotgan oqova suvlari hisobiga xam ifloslanib bormoqda. Daryo va ariqlarimizdagi suv tarkibida kaliy, kalsiy, fosfor, organik moddalar, azot birikmalari, turli bakteriyalar miqdori pasaymayapti. Chirchiq, Zarafshon daryolari, Salor arig'i va boshqa bir qator suv manbalarida salomatlik uchun xavfli moddalar ko'p. Respublika aholisining uchdan bir qismi davlat standartiga mos kelmaydigan ichimlik suvini iste'mol qilmoqda. Iste'molda ishlatilayotgan vodoprovodlarning aksariyatini qurilganiga yarim asrdan oshgan va albatta bu suvning gigiyenik tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirda kishilar hamma iflos chiqindilarini suvga tashlash odatiy holga aylanib, bunga jamiyat ham ko'nikib bormoqda. Respublikada suv manbalarini toza tutish va suvdan oqilona foydalanish borasidagi targ'ibot ishlarining ko'lami tor va past darajada. Yapon yozuvchisi Xirosi Noma «mabodo kelgusida yerda hayot tamom bo'lsa, u atom urushidan emas, u suv yetishmasligidan bo'ladi» degan gapi bejiz emas.

Markaziy Osiyoda suv bilan bog'liq yana bir katta muammo, bu-Orol muammosidir. 1-Prezident Islom Karimov 1993-yil 18-iyunda Shveytsariyadagi xalqaro iqtisodiy tashkiloti — «Forum-fond»da «Orol muammosi mamlakatimizga yoki Markaziy Osiyogagina taalluqli bo'lib qolmay, jahonshumul muammo hamdir. Orol bo'yidagi ekologiya vaziyatining mushkullashuvi oqibatida butun Yer kurrasiga ta'sir qilishi mumkin», -deb Orol muammosining global muammo ekanligini yana bir bor ta'kidladilar. XX asr o'talarida Orol dengizi (ko'li) – o'z hajmi va kattaligi bo'yicha 4-o'rinda (Kaspiy dengizi, Shimoliy Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin) bo'lib, 1960-yilda uning maydoni Belgiya maydoni bilan teng edi. 1911-1962 yillarda Orol dengizi sathi eng yuqori nuqtada bo'lib, 53,4 metrni, suvning hajmi 1064 kub kilometrni, suvning yuzasi 66 ming kvadrat kilometrni va minerallashuv darajasi bir litr suvda 10-11 grammni tashkil etgan edi. Unga Amudaryo va Sirdaryodan har yili deyarli 56 kub kilometr suv kelib quylardi. Paxta monopoliyasi davrida suvdan noto'g'ri foydalanish natijasida suvning Orol dengiziga yetib borishi asta-sekinlik bilan kamayib bordi. 1974-yildan Sirdaryoning suvi Orol dengiziga yetib bormay qo'ygan bo'lsa, Amudaryodan boradigan suv esa juda ham kamayib ketdi. 1994-yilga kelib Orol dengizi suvi sathi – 32,5 metrga, suv hajmi – 400 kub kilometrdan kamroqqa, suv yuzasining maydoni esa 32,5 ming kvadrat kilometrga tushib qoldi, suvning minerallashuvi ikki barobar ortdi. Orol dengizining sathi 20 metr pasayishi natijasida bir butun ko'l ikkita qoldiq ko'lg'a aylanib qoldi. Uning sohillari 60-80 kilometrga chekindi. Dengizning suvi qochgan tubi 4 million gektardan ortiqroq maydonga yoyilib, sho'rxok sahro hosil qildi. Shamol natijasida qumli chang-

TARIX

to'zon uzunligi 400 kilometr va eni 40 kilometr maydonga yetib bormoqda. Chang bo'ronlarining ta'sir doirasi esa 300 kilometrgacha yetmoqda. Xar yili atmosferaga 15-75 million tonna chang ko'tarilmoqda. Endilikda Orolbo'yи ekologik kulfat hududiga aylandi. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning ta'sirida qoldi. 1983-yildan Orol baliq ovlashga yaroqsiz suv havzasiga aylandi. Bunday ulkan dengizni yo'qolib ketishini oldini olish, ekohududni saqlab qolish, inson salomatligini himoyalash maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 1993-yili martda Qizilo'rдada, 1994-yil yanvarda Nukusda, 1994-yil martda Toshhovuzda, 1995-yil sentyabrda Nukusda, 1997-yil fevralda Almatida yuqori darajadagi uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Uchrashuvlarning natijasida Orol dengizini qutqarish fondi, davlatlararo suv xo'jaligi muvofiqlashtirish komissiyasi tuzildi. Shuningdek, jahon jamoatchiligining e'tibori Orol muammosiga qaratildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda suv muammosi nafaqat O'zbekiston Respublikasi, balki butun dunyo miqyosidagi global muammo hisoblanadi. Suv muammosini bartaraf etish va undan oqilona foydalanishni joriy etish hozirgi kunning eng asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun **birinchidan**, suvdan oqilona va to'g'ri foydalanishni joriy etish; **ikkinchidan**, mamlakatlارaro-transchegaraviy suvdan foydalanishni muvofiqlashtirish (chunki ko'plab davlatlarda foydalanilayotgan suvlarning-daryolarning asosiy manbai boshqa mamlakatlarda joylashgan va daryoning yuqori oqimida suvdan foydalanishda o'zgartirishlar qilinishi, daryoning quyi oqimida joylashgan suvdan foydalanuvchilar uchun qiyinchiliklar tug'diradi. «Transchegaraviy daryolarda har qanday gidrotexnik inshoot qurishda, mamlakat, bu borada qo'shni davlatlar bilan kelishishi va xalqaro huquq normalariga qat'iy rioxaya qilishi zarur») va imzolangan shartnoma-kelishuvlarga qat'ian rioxaya etish; **uchinchidan**, suv havzalarini ekologik muhofaza qilish va ifloslantirmaslik hamda sodir etilgan jinoyatlarga jazo choralarini kuchaytirish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қаранг:Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт қафолатлари. Т.:Ўзбекистон. 1997. 131-134-б
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон. 1994. 30,33-б
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси Т.1993. №1. 164-186 б
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси Т.1993. №5. 58-92 б
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси Т.1993. №6. 113-132 б
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси Т.1994. №10. 20-40 б
7. // Халқ сўзи. 1997.03.01.
8. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси Т.1999. №5. 98-112 б
9. //Хўжалик ва Хуқуқ. №3 2001. 3-7 б
10. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси Т.2001. №1. 62-83 б
11. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2006. №12. 44-б
12. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2006. № 12. 44-45 б
13. Тиловов Т. Экологиянинг долзарб муаммолари. К. «Насаф».15-б
14. Сув Узбекистон келажаги учун мухим хаётйи ресурс. Т.2007. 11-б.
15. Каримов И. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йулида: Т. 6. –Т. : Узбекистон. 1998. 115-б
16. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. 2006. № 12. 25-29 б
17. Алимов Т.А, Рафиқов А.А. Экологик католик сабоқлари. Т. Ўзбекистон. 1991. 23-б
18. Икромов Э.Ж, Хотамов.А.А. Экология ва атроф мухитни муҳофаза килиш асослари. Т.2001. 23-б.
19. Просто пишем о среде. Т.2004.18-б.
20. Экология ва хаёт. Т. Ўзбекистон. 2002. 15-б
21. Мустақиллик изохли илмий-оммабоп луғат. Т. «Шарқ». 1998. 180-б
22. Доклад о развитии человека 2006. Что кроется за нехваткой воды: Власть, бедность и глобальный кризис водных ресурсов. М. «Весь Мир». 2006. 143-б.
23. Каримов И. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йулида.: Т. 6. – Т.:Узбекистон. 1998. 117-б
24. Тиловов Т. Экологиянинг долзарб муаммолари. К. «Насаф». 2003. 17-б
25. Каримов И.Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йулида: Т. 6. – Т.:Узбекистон.1998. 117-118 б.
26. //Экология хабарномаси 1998. № 5-6. /Атроф мухит муҳофазасининг асосий йуналишлари.